

JAXONGIR PULATOV



NAVOIY VILOYATI PEDAGOGIK
MAHORAT MARKAZI
DOTSENTI, FALSAFA FANLARI
BO'YICHA FALSAFA DOKTORI
(PHD)

**EDUCATION AS AN IMPORTANT FACTOR IN
STRENGTHENING THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT
OF NEW UZBEKISTAN
(PHILOSOPHICAL ANALYSIS)**

**ОБРАЗОВАНИЕ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР УКРЕПЛЕНИЯ
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА
(ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)**

**YANGI O'ZBEKISTON BARQAROR TARAQQIYOTINI
MUSTAHKAMLASHDA TA'LIM MUHIM OMIL SIFATIDA
(FALSAFIY TAHLIL)**

Abstract: The article presents proposals and recommendations on the role of education in ensuring the sustainable development of New Uzbekistan, the reforms being carried out in the education system and their importance in ensuring the development of society.

Keywords: education, upbringing, competence, innovation, novation, methodology.

Аннотация: В статье представлены предложения и рекомендации по роли образования в обеспечении устойчивого развития Нового Узбекистана, проводимым реформам в системе образования и их важности для обеспечения развития общества.

Ключевые слова: образование, воспитание, компетентность, инновации, новация, методология.

Annotatsiya: maqolada Yangi O'zbekiston barqaror rivojlanishini ta'minlashda ta'limning o'rni, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar va ularning jamiyat taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyatiga oid taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, kompetensiya, innovatsiya, novatsiya, metodika.

Kirish. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uzluksiz ravishda yangilanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu taraqqiyotning barqarorligini ta'minlashda ta'lim tizimi hal qiluvchi o'rin egallaydi. Chunki ta'lim – jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi, inson kapitalini rivojlantiruvchi va kelajak taraqqiyoti poydevorini yaratuvchi asosiy omildir. Avvalo, ta'lim shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. Bilimli, tafakkuri keng, mustaqil fikrlay oladigan yoshlar jamiyatning eng muhim kuchi hisoblanadi. Shu bois ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va sifatni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Zero, "ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz" [Mirziyoyev Sh.M.2021.B-230]. Mamlakatda sifatli va zamonaviy ta'lim tizimi orqali jamiyatda bilimli, ongli va tashabbuskor avlod voyaga yetadi. Aynan ana shunday avlod mamlakatning kelajagini belgilab, uning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa, Yangi O'zbekiston barqaror taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Fan-texnika rivojlangan davrda dunyo miqyosidagi barcha muammolarni yechimi natijasida ilm-fan ravnaq topmoqda. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda olib borilayotgan o'zgarishlar ilmga asoslanayotganligi, yangi innovatsion texnologiyalarni jamiyat hayotiga tatbiq etilayotganligi Yangi O'zbekiston taraqqiyoti ilm-fan sohalariga bog'liqligiga ishoradir. Bu borada qator olimlar tadqiqotlari ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilayotganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, A.Saidov[Saidov A. 2008.B-228], Q.Nazarov, S.Otamuratov [Otamuratov S. 2018.B-346], A.Ibragimov, N.Safarova [Safarova N. 2009], A.Bobomurodova, V.Alimasov, E.Bobomurodov, E.Kalkanov, R.Samarov, V.Qo'chqorov, U.Saidov, F.Musayev, A.Ochilidiev, I.Saifnazarov [Saifnazarov I.1997.B-6], O.G'aybullayev [G'aybullayev O.2022.B-145] kabi olimlar jamiyatda inson huquqlari ustuvorligi, millat manfaati, ijtimoiy-siyosiy islohotlar yosh avlodning ma'naviy tarbiyasi va estetik ideallarini kuchaytirish masalalariga e'tibor qaratganlar. Shuningdek, N.Axmedova[Axmedova N.2017.B-35] globallashtirish va innovatsion taraqqiyot yo'liga o'tish davri talablaridan kelib chiqqan holda inson va jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida ta'lim sohasini rivojlantirish, shaxsga o'zini namoyon etish, intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarida ta'lim sohasidagi innovatsion yondashuvlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Xalqimiz tafakkurida *“Ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi”* degan hikmat bejiz shakllanmagan. Zero, insonning ma'naviy kamoloti, tafakkur darajasi va hayotiy qarashlari aynan yoshlikdan shakllanadi. Ta'lim shaxsni barkamollikka yo'naltirsa, tarbiya jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bois yurtimizda ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksizlik tamoyiliga tayanib, inson hayotining ilk davridan boshlab yetuklik bosqichigacha bo'lgan jarayonni qamrab oluvchi yaxlit tizimni shakllantirishga qaratilmoqda. Mazkur yondashuv orqali bola tug'ilganidan 30 yoshgacha bo'lgan davrda uning intellektual, ma'naviy va kasbiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu esa, inson qadri va taraqqiyot falsafasining amaliy ifodasidir. *“Bir so'z bilan aytganda, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham-bu ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Bugungi kunda har qanday mamlakatning taraqqiyoti va dunyoda raqobatbardoshligi, avvalo, ta'lim sifatiga, ilm-fan rivojiga bog'liqdir”*[Mirziyoyev Sh.M.2024.B-132]. Ta'limni sifat jihatdan yangi bosqichga chiqarishga qaratilgan islohotlarga oid qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinayotganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida *“Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi”*[O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.2023.B-20] 2023-yil 23-sentyabrda qabul qilingan *“Ta'lim to'g'risida”*gi qonunning qabul qilinishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uni ijtimoiy taraqqiyot talablari asosida takomillashtirish yo'lida muhim normativ-huquqiy bosqich hisoblanadi. Mazkur qonun orqali insonning fundamental huquqlaridan biri bo'lgan ta'lim olish huquqi kafolatlanib, uzluksiz ta'lim tizimining institutsional asoslari shakllantirildi. Shuningdek, unda maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarning o'zaro uzviyligi va izchilligi ta'minlanib, yagona boshqaruv mexanizmi yaratildi.

Falsafiy nuqtai nazardan, ushbu qonun inson kapitalini rivojlantirish, shaxs kamoloti hamda jamiyatning ma'naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. U yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, zamonaviy bilimlar va kasbiy kompetensiyalarni egallash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratdi. Shu bilan birga, pedagoglarning huquqiy maqomi belgilanishi hamda ta'lim sifati masalasiga ustuvor e'tibor qaratilishi ijtimoiy adolat va samaradorlik tamoyillarining qaror topishiga zamin yaratdi. Natijada, mazkur qonun davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan

malakali kadrlar tayyorlashning mustahkam huquqiy poydevorini yaratib, barqaror rivojlanishning strategik omiliga aylandi. Bundan tashqari ta'lim tizimida natijadorlikka erishishda davlat ta'lim standarti muhim omillardan biridir. Chunki, davlat ta'lim standarti jamiyat taraqqiyoti, inson kapitalini rivojlantirish va ta'lim tizimini barqaror boshqarishda muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Davlat ta'lim standarti jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini ta'lim mazmuni orqali aks ettiruvchi me'yoriy tizimdir. U shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini uyg'unlashtirgan holda ta'lim jarayonining maqsad, vazifa va natijalarini belgilaydi.

Davlat ta'lim standartining asosiy vazifasi – ta'lim sifati va mazmuniga yagona talablarni joriy etishdir. U maktabgacha, umumiy o'rta, kasbiy hamda oliy ta'lim bosqichlarida bilim, ko'nikma va kompetensiyalarning minimal darajasini belgilaydi. Shu jihatdan standart ta'lim tizimida tenglik, izchillik va adolat tamoyillarini ta'minlaydi. O'zbekiston hududidagi barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun standart talablarini bajarish majburiyati belgilangan.

Falsafada ta'lim jamiyatni qayta ishlab chiqaruvchi mexanizm sifatida talqin qilinadi. Shu ma'noda davlat ta'lim standarti yosh avlodga nafaqat bilim berish, balki ularni fuqarolik mas'uliyati, milliy qadriyatlar va zamonaviy dunyoqarash ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Standartlar orqali jamiyatning kelajak modeli shakllanadi, ya'ni qanday shaxsni tarbiyalash zarurligi aniqlanadi.

Shuningdek, davlat ta'lim standarti ta'lim sifatini nazorat qilish va monitoring qilishning muhim vositasidir. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim yo'nalishlari, o'quv rejalari, fan dasturlari va talabalar bilimining standartlarga muvofiqligi muntazam tahlil qilinishi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Falsafiy jihatdan samaradorlik – bu natijaning jamiyat ehtiyojlariga mos kelishidir. Agar ta'lim bitiruvchisi mustaqil fikrlaydigan, kasbiy malakaga ega va ijtimoiy faol shaxs bo'lib shakllansa, bu davlat ta'lim standartining samarali ishlayotganidan dalolat beradi.

Davlat ta'lim standarti ta'lim sifatini boshqaruvchi, ijtimoiy adolatni ta'minlovchi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi strategik omildir. U inson kapitalini rivojlantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda Yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Tahlil va natijalar. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng muhim strategik omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki har qanday davlatning barqaror rivojlanishi, avvalo, inson kapitalining yuksalishi, ma'naviy yetuk, bilimli va raqobatbardosh kadrlarning shakllanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shu ma'noda ta'lim nafaqat bilim berish vositasi, balki jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy institutdir. Zero, ta'lim insonni kamolot sari yetaklovchi jarayon hisoblanadi. Inson o'z mohiyatini anglash, tafakkurini rivojlantirish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatini aynan ta'lim orqali qo'lga kiritadi. Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi mutafakkirlarimiz va jadid allomalimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat ilm-ma'rifatni inson kamolotining eng oliy mezon sifatida baholaganlar. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiyning "Avlodlarimizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o'rgating"[Mirziyoyev Sh.M.2020.B-364] degan so'zlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Demak, ta'lim shaxsning ichki salohiyatini yuzaga chiqaruvchi va uni jamiyat taraqqiyotiga yo'naltiruvchi kuchdir. Ta'lim tizimiga xususiy sektorni jalb qilish natijasida raqobat muhiti shakllanmoqda. Birgina informatika fani o'qituvchilari uchun dasturlash tillari (Python, C++, Scratch) bo'yicha o'quv kurslari olib borildi. Shuningdek, Rossiyaning "KJIACC", AQSHning "English Speaking Nation" loyihalari doirasida tajribali pedagoglar mamlakatimiz ta'lim tizimiga jalb qilindi. "El-yurt umidi" jamg'armasi hisobidan ko'plab pedagoglarimiz Kanada, Buyuk Britaniya, Italiya, Singapur, Turkiya kabi davlatlarga stajirovkalarga yuborildi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida barqaror taraqqiyot tushunchasi faqat iqtisodiy o‘shish bilan emas, balki ijtimoiy adolat, ekologik muvozanat, innovatsion rivojlanish va inson manfaatlarini ta‘minlash bilan ham izohlanadi. Ana shu maqsadlarga erishishda ta‘lim tizimi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega avlodni tarbiyalash orqali mamlakatda raqamli iqtisodiyot, innovatsion texnologiyalar va ilm-fan taraqqiyoti jadallashadi.

Ta‘limning barqaror taraqqiyotdagi yana bir muhim jihati – bu ma‘naviy xavfsizlikni ta‘minlashidir. Globallashtirish davrida turli mafkuraviy tahdidlar, ommaviy madaniyat ta‘siri kuchayib borayotgan bir paytda yoshlarning mustaqil fikrlashi, milliy qadriyatlarga sodiqligi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi muhim vazifadir. Bu esa ta‘lim-tarbiya jarayonining mazmuni va sifatiga bog‘liqdir. Bugungi kunda O‘zbekistonda maktabgacha ta‘limdan boshlab oliy ta‘lim va ilm-fangacha bo‘lgan tizimni isloh qilish, xorijiy tajribalarni joriy etish, nodavlat ta‘lim muassasalarini rivojlantirish, pedagoglarning maqomini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar inson manfaatlarini ta‘minlash, jamiyatda bilimli va ongli avlodni voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini rivojlantirish uchun ta‘lim tizimiga e‘tibor berish natijasida:

-*birinchidan*, jamiyatda aholining intellektual salohiyati yuksalmoqda, inson kapitali rivojlanmoqda.

-*ikkinchidan*, ta‘lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda.

- *uchinchidan*, yoshlarning sifatli bilim olish imkoniyati oshib, ularning kasbiy malaka va kompetensiyalari shakllanishi natijasida iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali mutaxassislar yetishtirishga xizmat qilmoqda.

- *to‘rtinchidan*, ta‘lim tizimidagi islohotlar yosh avlodning mustaqil fikrlashi, fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlashda muhim omil bo‘lmoqda. Bu kabi omillar Yangi O‘zbekiston barqaror taraqqiyotini mustahkamlashga xizmat qiladi. Chunki ta‘lim orqali jamiyatning intellektual salohiyati oshadi, iqtisodiy rivojlanish tezlashadi, ma‘naviy muhit sog‘lomlashadi va kelajak avlodning raqobatbardoshligi ta‘minlanadi. Shunday ekan, ta‘limga investitsiya kiritish – kelajakka investitsiya kiritish demakdir.

Xulosa va takliflar. Ta‘lim barqaror taraqqiyotning nafaqat vositasi, balki uning mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy ijtimoiy qadriyatdir. Zero, ta‘lim inson tafakkurini yuksaltiradi, ma‘naviy kamolotni ta‘minlaydi va jamiyatning innovatsion salohiyatini shakllantiradi. Bilimli, ongli va mas‘uliyatli avlodni tarbiyalash orqali ta‘lim iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy adolat hamda madaniy taraqqiyot o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta‘minlaydi. Shu bois, ta‘limga investitsiya kiritish kelajak taraqqiyotiga investitsiya kiritish bilan teng bo‘lib, u har qanday davlatning barqaror rivojlanish strategiyasining ustuvor poydevori hisoblanadi. Demak, ta‘lim jamiyatning intellektual salohiyatini oshiradi, malakali kadrlar tayyorlaydi va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Bilimli, mustaqil fikrlaydigan va zamonaviy dunyoqarashga ega yoshlar mamlakat kelajagini belgilaydi. O‘zbekistonda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar maktabgacha ta‘limni kengaytirish, maktablar sifatini oshirish, oliy ta‘lim qamrovini kengaytirish hamda ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa davlatning barqaror taraqqiyotiga mustahkam zamin yaratadi. Shuningdek, ta‘lim nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, balki ma‘naviy yuksalish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va milliy qadriyatlarni asrashda ham muhim ahamiyatga ega. Shu bois ta‘lim tizimini takomillashtirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi. Ta‘limga qaratilgan e‘tibor va investitsiya – bu kelajakka qaratilgan eng samarali sarmoyadir. Zero, kuchli ta‘lim tizimi Yangi O‘zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta‘minlaydigan asosiy poydevordir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi.-T.: O'zbekiston, 2021.- B. 230 .
2. Саидов А. Философско-правовое наследие Иммануила Канта и современная юриспруденция. –Т.: - 2008.-С.228.
3. Отамуратов С. Глобаллашув: миллатни асраш маъсулияти.–Т.: Ўзбекистон, 2018.- В. 346.
4. Сафарова Н. Терроризм (тарихий-фалсафий таҳлил).- Т.: Ношир, 2009.
5. Саифназаров И. Ватанпарварликнинг миллий ва умуминсоний жиҳатлари. –Т.: Меҳнат, 1997. – Б. 32.
6. Ғайбуллаев О. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашда миллий ғоянинг ўрни // “Имом Бухорий сабоқлари” журнали, 2022.- № 1. –Б. 145-146.
7. Ахмедова Н. Умумий ўрта таълим мактаблари раҳбарлари бошқарув фаолияти самарадорлигини ошириш. Автореферат. Фалсафа докторлик дис. – Т.: 2017. – Б. 35.
8. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston.-T.: O'zbekiston, 2024.-B.132.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Т.: O'zbekiston, 2023.-B.8.
10. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari.-T.: O'zbekiston, 2020.- B.364.